



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 268 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi..... 191 Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati..... 197 Inoyatova Zulfiya Xamdammovna
	Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari..... 199 Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi
	Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish 203 Kayumov Oybek Achilovich
	Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish..... 209 Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish..... 211 Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna
	Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish 214 Rayimova Shahlo Sobirjon qizi
	STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari 217 Toshev Elbek Choriyevich
	Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli..... 223 Usmanov Botir Allaberdievich
	Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati..... 227 Xalilova Dilnoza Furkatovna
	Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni 230 Xodiyeva Dilrabo Pirimovna
	Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education 233 Yunusova Nodira Akhmadjanovna
	Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari 237 Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna
	The Psychological Impact of Social Media on Youth 242 Dilfuza Qarshiboyeva
	Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi 246 Islamova Dilfuza Dilshodovna
	Dizartriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish..... 250 Pardayeva Muxlisa
	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati..... 257 Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi
	Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers 259 Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar 264 Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MONTESSORI METODI BO'YICHA SEZGIR DAVRLAR

Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Montessori metodidagi sezgir davrlar tahlili keltirilgan va ularning maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kognitiv, lingvistik va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada Mariya Montessorining sezgir davrlar haqidagi nazariy qarashlari yoritiladi va ularni bolalar ta'limida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi, ayniqsa tilni o'zlashtirish, tartib hissini shakllantirish, harakatni rivojlantirish, sensor rivojlantirish va ijtimoiy xulq-atvorga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada sezgir davrlar jarayonida bolalarning tabiiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirishning asosiy omili sifatida tayyorlangan muhitning ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, bolalar faoliyatining maqsadga yo'naltirilgan bo'lishida pedagogik kuzatuvning roli va kattalarning minimal aralashuvi tamoyiliga alohida e'tibor beriladi. Sezgir davrlarni o'z vaqtida aniqlash, kuzatish va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash bolalarda o'rganish samaradorligini, avtonomiyani hamda hissiy holatlarini boshqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: Montessori usuli, sezgir davrlar, erta yoshdagi rivojlanish, tayyorlangan muhit, tilni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, sensor rivojlanish, bolaga yo'naltirilgan ta'lim.

Abstract: This article presents an analysis of sensitive periods within the Montessori method and examines their role in supporting the cognitive, linguistic, and social development of children in preschool education settings. The article outlines Maria Montessori's theoretical views on sensitive periods and explores the possibilities of their practical application in early childhood education, with particular emphasis on language acquisition, the formation of a sense of order, the development of movement, sensory development, and social behavior. The significance of a specially prepared environment is highlighted as a key factor in meeting children's natural developmental needs during sensitive phases. Special attention is given to the role of pedagogical observation and the principle of minimal adult intervention in children's purposeful activities. Timely identification, observation, and pedagogical support of sensitive periods significantly enhance learning effectiveness, the level of autonomy, and children's ability to regulate their emotional states.

Key words: Montessori method, sensitive periods, early childhood development, prepared environment, language development, preschool education, sensory development, learner-centered education.

Аннотация: В данной статье представлен анализ сенситивных периодов в методе Монтессори и рассмотрена их роль в поддержке когнитивного, лингвистического и социального развития воспитанников организаций дошкольного образования. В статье раскрываются теоретические взгляды Мария Монтессори на сенситивные периоды и исследуются возможности их практического применения в обучении детей с особым акцентом на освоение языка, формирование чувства порядка, развитие движений, сенсорное развитие и социальное поведение. Подчеркивается значимость специально подготовленной среды как ключевого фактора удовлетворения естественных потребностей развития ребенка в период сенситивных фаз. Особое внимание уделяется роли педагогического наблюдения и принципу минимального вмешательства взрослого в целенаправленную деятельность детей. Своевременное выявление, наблюдение и педагогическая поддержка сенситивных периодов существенно повышают эффективность обучения, уровень автономности и способность детей управлять собственными эмоциональными состояниями.

Ключевые слова: метод Монтессори, сенситивные периоды, раннее развитие, подготовленная среда, развитие речи, дошкольное образование, сенсорное развитие, личностно-ориентированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy pedagogika va rivojlanish psixologiyasida maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 3-7 yosh davri bola rivojlanishining eng faol va sezgir davri bo'lib, bu davrda bilish jarayonlari, nutq, harakat va ijtimoiy munosabatlar jadal rivojlanadi ^[1]. Bu yoshda bola tashqi muhit ta'siriga o'ta sezgir bo'lib, bilim va ko'nikmalarni tabiiy ravishda, majburlashsiz va oson egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu davrda sezgir davrlar



bolaning muayyan faoliyat turlariga bo'lgan ichki ehtiyojining ortishi bilan tavsiflanadi. Bu holat til o'rganish, harakatlarni muvofiqlashtirish, tartib va muhitni tushunish, hissiy idrok, ijtimoiy muloqot kabi sohalarida aniq namoyon bo'ladi ^[2].

Agar ta'lim jarayoni ana shu sezgir davrlarga mos ravishda tashkil etilsa, bolaning rivojlanishi tabiiy, samarali va barqaror bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Montessori usuli maktabgacha ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodologiya bolaning rivojlanishini kuzatish, harakat va real tajribaga, shuningdek, mustaqil faoliyatga asoslangan sezgir davrlarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Mariya Montessori ta'lim tizimida bola faol subyekt sifatida qaraladi, uning ichki jarayonlari va energiyasi ta'lim mazmunini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada sezgir davrlarning pedagogik ahamiyati va ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida samarali qo'llash masalalari tahlil qilinadi ^[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Montessori usulida "sezgir davrlar" tushunchasi bolaning rivojlanishidagi muayyan vaqt oraliqini anglatadi, bunda bola ma'lum turdagi o'rganish tajribalarini ayniqsa yuqori darajada qabul qiladi. Mariya Montessori bolalarning ushbu davrlarni boshdan kechirishini kuzatgan va aynan shu davrda ularda atrof-muhitning muayyan jihatlariga nisbatan qiziqish hamda sezgirlik keskin ortishini ta'kidlagan ^[4]. Mazkur davrlar vaqtinchalik bo'lib, uzluksiz davom etmaydi. Agar bola sezgir davrda tegishli stimullar va tajribalar bilan ta'minlansa, u ko'nikma va bilimlarni oson, tez va katta qiziqish bilan egallaydi.

Montessori ta'limotiga ko'ra, sezgir davrlar miya rivojlanishining ko'plab jihatlarini qamrab oladi va bu faqat nutq yoki sezgi bilan bog'liq jarayonlar bilangina cheklanmaydi. U sezgir davrlarning bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi, jumladan, tartibga intilish, harakatlarni takrorlash va muvofiqlashtirish, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish hamda adolat hissining rivojlanishi. Ushbu jarayonlar bolaning faoliyatini muntazam kuzatish va unga hurmat bilan yondashish orqali aniqlanadi. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, sezgir davrlar bolani maqsadga yo'naltirilgan, ongli va faol harakatga undaydi ^[5].

1-jadval: Montessori ta'limidagi nozik davrlarning ba'zi misollari

	Xususiyatlari	Montessori yondashuvi:
Buyumlar tartibi	Bolalar o'z muhitida tartib uchun kuchli istakni namoyon etadilar.	Sinf xonalari tartibni saqlash uchun tuzilgan, turli tadbirlar uchun aniq belgilangan joylar mavjud. Doimiy tartiblar va kundalik jadvallar oldindan aytish mumkin bo'lgan tuyg'uni ta'minlaydi.
Kichik buyumlar	Bolalar kichik narsalarga, murakkab detallarga va mayda buyumlar bilan ishlashga qiziqishadi.	Montessori sensor sohasi kabi sensor materiallari ko'pincha bolalar teginish va manipulyatsiya orqali o'rganishlari mumkin bo'lgan kichik narsalarni o'z ichiga oladi, bu esa ularning nozik motorikasini yaxshilaydi.
Xushmuomalalik	Bolalar ijtimoiy munosabatlarga, odob-axloq qoidalariga va xushmuomalalik bilan qiziqishadi.	Montessori sinflarida nafislik va xushmuomalalik darslari mavjud bo'lib, bolalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishni, navbat bilan harakat qilishni va hurmatli muloqot qilishni o'rgatadi. Amaliy hayotiy mashg'ulotlar ham ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.
Til ifodasi	Bolalar tilni o'zlashtirish, so'z boyligini rivojlantirish va til tuzilmalarini o'rganishga juda moyil.	Montessori sinflarida tilga boy muhitlar yaratiladi, mashg'ulotlar og'zaki til, so'z boyligini oshirish, hikoya qilish va oxir-oqibat o'qish va yozishga qaratilgan.
Fazoviy aloqalar	Bolalar ob'ektlarning fazoviy joylashuvini va ularning bir-biri bilan munosabatlarini tushunishga qiziqish bildiradilar.	Pushti minora va Keng zinapoya kabi sensor materiallar bolalarga o'lcham, o'lcham va fazoviy munosabatlar tushunchalarini o'rganishga yordam beradi. Geografiya materiallari, shuningdek, fazoviy munosabatlarni kengroq miqyosda tushunishga hissa qo'shadi.
Sezgir davrlar rivojlanishi	Bolalar ko'rish, eshitish, teginish, ta'm va hid bilish sezgilarini rivojlantirishga yuqori sezgirlik va qiziqishni namoyon etadilar.	Sensor materiallari har bir sezgini alohida ajratib olish va rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Mashg'ulotlar rang, tekstura, tovush va ta'm kabi sezgi xususiyatlarini farqlashni o'z ichiga oladi.
Harakatni muvofiqlashtirish	Bolalar o'zlarining umumiy va nozik motorikasini, muvozanatini va muvofiqlashtirishini rivojlantirish va takomillashtirishga e'tibor qaratmoqdalar.	Amaliy hayotiy mashg'ulotlar, orqali, Sensor tozalash materiallar va til ichish Harakatlanuvchi Alifbo nozik va yalpi motorikani rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Montessori o'qituvchilari uchun ushbu sezgir davrlarni tushunish va tan olish juda muhimdir. Ushbu davrlarda bolaning rivojlanish ehtiyojlariga mos keladigan muhitni yaratish orqali o'qituvchilar optimal o'rganish va rivojlanishni qo'llab-quvvatlashlari mumkin ^[6].

Mariya Montessori shunday ta'kidlaydiki, bolaning ichki rivojlanish "soati", ya'ni "ichki o'qituvchi"si uning ayni paytdagi rivojlanish ehtiyojlarini eng yaxshi rag'batlantiruvchi muhit jihatlari aniqaydi. Ushbu jarayonda bolaning ichki rivojlanish mexanizmi sezgir davr talablariga mos keladigan omillarni tanlaydi. Aniqlangandan so'ng, bolalar atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sirga kirishib, katta kuch va energiya sarflaydilar, bu esa ularga zarur stimullardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ular o'z ehtiyojlarini qondirganlaridan so'ng, sezgir davr yakunlanadi: bola o'ziga xos ichki ehtiyojni qondiradi va keyingi rivojlanish bosqichiga o'tadi.

Montessori ta'rifiga ko'ra: "Sezgir davrlar – bu bolani faoliyatga, ayniqsa atrof-muhit bilan ishlashga undovchi, muayyan jihatga nisbatan kuchli va qarshilik qilib bo'lmaydigan qiziqishdir. Aynan shu faoliyat orqali bola muayyan sifatni barqaror egallaydi" ^[7].

Sezgir davrlarni bilish har qanday ota-ona yoki o'qituvchi uchun muhim metodik vosita hisoblanadi, chunki bu muhitni oldindan tayyorlash va bolaning ehtiyojlari yuzaga kelishidan avval zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, bola rasm chizishga sezgir davrga yetganda (odatda o'n sakkiz oylikdan boshlab), u qalam va qog'ozdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim, aks holda u devor yoki mebellarda chizishga urinishi mumkin. Bu holat hazil emas, balki rivojlanish qonuniyatining tabiiy ko'rinishidir. Bola to'liq rivojlanishi uchun sezgir davr ehtiyojlarini qondirishi zarur, chunki bu uning ichki harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Juda yosh bolalar sezgir davr bilan bog'liq faoliyatlarini nazorat qila olmaydi: ular bu faoliyatni hatto yaqinlari, o'yinchoqlar yoki fiziologik ehtiyojlardan ustun qo'yishi mumkin. Agar ularga to'sqinlik qilinsa, ular kuchli hissiy reaksiyalar (yig'lash, norozilik) bildiradi. Shu sababli ota-onalar va pedagoglar uchun muhim vazifa – bolaning qaysi sezgir davrda ekanligini to'g'ri aniqlashdir ^[8].

Ko'pincha kattalar bolaning faoliyati mazmunini to'liq tushunmasligi mumkin, biroq Montessori ta'limotiga ko'ra, bolaning barcha maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlarini hurmat qilish zarur, ayniqsa ular sezgir davr bilan bog'liq bo'lsa. Sezgir davrni aniqlashning asosiy belgilaridan biri – bolaning yuqori darajadagi diqqat jamlashi va faoliyatga to'liq berilishidir. Masalan, turishni o'rganayotgan chaqaloq o'z harakatlariga shu qadar berilib ketadiki, atrofda boshqa omillarga e'tibor bermaydi. Shuningdek, bola muvaffaqiyatsizlikka nisbatan yuqori bardoshlilik ko'rsatadi va harakatlarni ko'p marotaba takrorlaydi. Faoliyat yakunida esa u charchagan emas, balki qoniqish hissi bilan tetiklashgan holatda bo'ladi ^[9]. Ushbu belgilar bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan faoliyatni amalga oshirayotganini ko'rsatadi.

Bunday vaziyatlarda kattalar bolaning harakatlarini to'xtatish o'rniga, uni xavfsiz va mos yo'nalishga yo'naltirishlari lozim. Masalan, bola devorga chizishga urinayotgan bo'lsa, unga qog'oz va rangli qalamlar taklif etilishi maqsadga muvofiqdir. Keyingi bosqichlarda sezgir davrlar aniq vaqt chegaralariga kamroq bog'liq bo'lib, ko'proq bolaning individual rivojlanishiga qarab shakllanadi.

Rivojlanishning ikkinchi bosqichida, ya'ni 6-12 yosh oralig'ida, bolalarda mavhum fikrlash va tasavvur rivojlanishiga nisbatan sezgirlik kuchayadi. Shu bilan birga, ular ijtimoiy munosabatlarga, tengdoshlar guruhiga moslashishga, axloqiy qadriyatlar, adolat va mas'uliyat tushunchalarini anglashga intiladilar. Xulosa sifatida aytganda: "Hayotga yordam berish, uni erkin rivojlanishiga imkon yaratish – o'qituvchining asosiy vazifasidir" ^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ikki yo'nalishda olib borildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar orasida so'rovnoma tashkil etildi. Ikkinchi bosqichda esa mazkur tayyorlov guruhlaridagi bolalar bilan bevosita suhbatlar o'tkazilib, ularning sezgir davrlarga xos faoliyatlari, nutqiy faolligi hamda mustaqil o'rganish darajalari aniqlab olindi. Suhbatlar jarayonida bolalarning tilni tabiiy o'zlashtirish jarayoni, sezgi asosidagi faoliyatga munosabati va mustaqil ishlash ko'nikmalari kuzatildi. Mazkur suhbatlar Namangan shahri 6-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti, Chortoq tumani 17-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda To'raqo'rg'on tumani 15-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhlarida tashkil etildi. So'rovnoma esa onlayn shaklda yuqorida qayd etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari hamda respublikaning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni birlashtirgan Telegram guruhi orqali o'tkazildi.

So'rovnoma olti asosiy bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni qamrab oldi:

1. Montessori metodiga asoslangan amaliy faoliyat haqidagi umumiy taassurotlar;
2. Ta'lim jarayonida sezgir davrlarning namoyon bo'lishi va ijtimoiy muhitning roli;
3. Montessori muhitida pedagogning yo'naltiruvchi va kuzatuvchi sifatidagi o'rni;
4. Sezgir davrlarni hisobga olgan holda bolalarda nutq va bilish jarayonlarini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar;



5. Ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati;
6. Pedagoglarning Montessori metodini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalari.

Olingan natijalar maktabgacha ta'lim amaliyotidagi mavjud dasturlar asosida tahlil qilinib, Montessori metodikasi bo'yicha olib borilgan xalqaro va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari bilan qiyosiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgir davrlarni aniqlash va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlarini asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, maktabgacha yosh davrida bolalarning sezgir davrlari faol namoyon bo'lib, bu davrda ular tashqi muhit ta'sirlariga, sezgi orqali idrok etishga, harakat va muloqotga yuqori darajada moyil bo'ladilar. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni hanuz an'anaviy yondashuvlarga asoslanib olib borilmoqda. O'tkazilgan kuzatuvlar va suhbatlar davomida aniqlanishicha, amaldagi mashg'ulotlarda bolalarning sezgir davrlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Ta'lim jarayonida asosan tayyor bilimlarni berish, boladan eslab qolish va takrorlash talab etiladi. Bu holat esa bolaning tabiiy qiziqishi, mustaqil faolligi va sezgi orqali o'rganish ehtiyojini to'liq qondirmaydi. Natijada bolalar o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalashda, o'z fikrini mustaqil bayon etishda va faol muloqotga kirishishda sustlik ko'rsatadilar. Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining amaliyot dasturlarida asosan quyidagi faoliyat turlari ko'zda tutilgani aniqlandi: amaliyot obyektini o'rganish, mashg'ulotlarni kuzatish, metodist-pedagog ko'rsatmalarini bajarish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda yordamchi sifatida ishtirok etish hamda qisqa mikromashg'ulotlar tashkil etish.

Ushbu faoliyatlar ta'lim jarayoniga dastlabki moslashuv bosqichida ma'lum darajada foydali bo'lishi mumkin, biroq ular bolaning sezgir davrlarini to'liq rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mashg'ulot jarayonida Montessori metodiga xos bo'lgan muhim didaktik vositalar yetarli darajada qo'llanilmaydi. Jumladan, rol o'yinlari, harakat va sezgi asosidagi materiallar, tartib va muhitni anglashga xizmat qiluvchi didaktik vositalar ta'lim jarayoniga tizimli tarzda integratsiya qilinmagan. Holbuki, bunday materiallar bolaning sezgir davrlarida uning bilish faolligini oshiradi, mustaqil o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi hamda shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sezgir davrlarni hisobga olgan holda Montessori metodini kengroq va tizimli joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Bu yondashuv bolaning tabiiy rivojlanish ehtiyojlariga mos kelib, uning mustaqil, faol va ongli o'rganish jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil va tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davrida bolalarda namoyon bo'ladigan sezgir davrlarni hisobga olgan holda Montessori metodini qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metod bolaning tabiiy rivojlanish ehtiyojlariga mos bo'lib, sezgi, harakat va mustaqil faoliyat orqali o'rganishga keng imkoniyat yaratadi. Tadqiqot natijalari Montessori muhitida qo'llaniladigan didaktik materiallar va erkin faoliyat turlari bolalarning nutqiy, sensor va ijtimoiy rivojlanishini uyg'un tarzda ta'minlashini tasdiqladi. Sezgir davrlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda mustaqillik, diqqat, muloqotga kirishish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida Montessori metodiga asoslangan yondashuvni keng joriy etish, sezgir davrlarni inobatga olgan holda tayyorlangan muhit yaratish va bolalarning tabiiy faolligini qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifa sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Developmental psychology: Childhood and adolescence" – David Shaffer, Katherine Kipp, (1946)
2. The absorbent mind – Maria Montessori (1949)
3. The secret of childhood– Maria Montessori (1966)
4. Montessori: The science behind the genius – Angeline Stoll Lillard (1969)
5. Education for a new world– Maria Montessori
6. The nature of the child – Jerome Kagan (1984)
7. Montessori: A modern approach – Paula Polk Lillard (1972)
8. The discovery of the child – Maria Montessori

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.